

I. SANOAT

Korxonalar va tashkilotlar yagona davlat registri ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yil 1-yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni 3 641 taga yetdi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 368 ta yoki 11,2 foizga oshgan.


Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatimizda 1 082 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etilgan bo'lib, ularning 14,0 foizi Navoiy shahri, 14,0 foizi Uchquduq tumani, 13,5 foizi Xatirchi tumani, 11,4 foizi Karmana tumani hissalariga to'g'ri keldi.




2022-yil 1-yanvar holatiga shahar va tumanlar kesimida faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni, birlikda

	<i>faoliyat yuritayotgan</i>	<i>shundan,</i>		<i>2021-yil yanvar-dekabr oylarida tashkil etilgan</i>
		<i>yirik korxonalar</i>	<i>kichik biznes</i>	
Jami	3 641	24	3 612	1 082
Navoiy sh.	766	12	754	151
Zarafshon sh.	340	1	335	112
Karmana t.	599	6	593	123
Konimex t.	124	-	124	58
Qiziltepa t.	415	2	413	98
Navbahor t.	252	1	250	78
Nurota t.	421	1	420	110
Tomdi t.	87	-	87	55
Uchquduq t.	162	-	162	151
Xatirchi t.	475	1	474	146

Faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni, birlik
(2022-yil 1-yanvar holatiga)



Yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni, birlik
(2021-yil yanvar-dekabr)



2021-yil yanvar-dekabr oylarida sanoat mahsuloti hajmi 73 631,1 mlrd. soʻmni yoki oʻtgan yilning shu davriga nisbatan fizik hajm indeksi (oʻsish surʻati) 107,0 foizni tashkil etdi.

Hisobot davrida 4 338,8 mlrd. soʻmlik isteʼmol mahsulotlari ishlab chiqarilib, 2020-yil yanvar-dekabrga nisbatan oʻsish surʻati 105,9 foizni tashkil etdi.

Jumladan, 1 813,1 mlrd. soʻmlik oziq-ovqat mahsulotlari, aroq-vino mahsulotlari va pivo, 2 525,7 mlrd. soʻmlik nooziq-ovqat mollari (2020-yil yanvar-dekabrga nisbatan mos ravishda 109,6 foiz va 103,4 foiz) ishlab chiqarildi.




2021-yil yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotini ishlab chiqarish

	<i>mlrd. so'm</i>	<i>fizik hajm indeksi (o'sish sur'ati, % da)</i>
Iqtisodiy faoliyatning alohida turlari bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi	73 631,1	107,0
Tog' - kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	9 281,1	138,2
<i>ulardan:</i>		
Metall rudalarini qazib olish	9 166,6	138,3
Boshqa turdagi tog'-kon sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish	114,5	132,4
Qayta ishlash sanoati	60 323,7	103,7
<i>undan:</i>		
Oziq - ovqat mahsulotlari, ichimliklar tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish	1 962,3	109,7
To'qimachilik mahsulotlari, kiyimlar, teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish	2 458,4	118,8
Yog'och va po'kak buyumlar, pohlol va to'qish uchun materiallardan buyumlari, qog'oz va qog'oz mahsulotlari, mebellar ishlab chiqarish	96,6	87,7
Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish	9,8	81,5
Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	0,6	80,2
Kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	4 550,3	126,1
Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish	3,4	79,1
Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	2 227,5	86,2
Metallurgiya sanoati	45 143,0	95,6
Mashina va uskunalardan tashqari, tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	2 918,4	17,0 m.
Kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish	159,8	67,5
Elektr usqunalar ishlab chiqarish	167,9	145,0
Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish	195,7	2,2 m.
Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish	364,3	106,4

	<i>mlrd. so‘m</i>	<i>fizik hajm indeksi (o‘shish sur‘ati, % da)</i>
Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish	28,1	31,6 m.
Mashina va uskunalarni ta‘mirlash va o‘rnatish	37,5	167,4
Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash	3 952,8	108,8
Suv bilan ta‘minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish	73,5	15,4
Iste‘mol tovarlarini ishlab chiqarish	4 338,8	105,9
<i>shu jumladan:</i>		
oziq-ovqat tovarlari	1 813,1	109,6
nooziq-ovqat tovarlari	2 525,7	103,4


Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat ishlab chiqarishi ulushi, foizda



Yanvar-dekabr oylarida iste‘mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste‘mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 4 338,8 mlrd. so‘mni tashkil etdi va 2020- yilning mos davriga nisbatan 5,9 foizga oshgan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 5,9 foizni tashkil etdi.

Jami iste'mol tovarlari



Yanvar-dekabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibi (jami iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmiga nisbatan, % da)

2020- yil yanvar-dekabr	2021- yil yanvar-dekabr
<p>Ulushi , %da</p> <p>40,4</p> <p>59,6</p>	<p>Ulushi , %da</p> <p>41,8</p> <p>58,2</p>
<p>Oziq-ovqat mahsulotlari</p>	<p>Nooziq-ovqat mahsulotlari</p>



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsuloti
turlarini ishlab chiqarish (yirik korxonalar bo'yicha)

	<i>O'lchov birligi</i>	<i>2021-yil yanvar-dekabr</i>	<i>O'sish sur'ati, % da</i>
Tog' - kon sanoati va ochiq konlarni ishlash			
Chaqiq tosh (sheben)	<i>tn.</i>	21 626,9	66,1
Qayta ishlash sanoati			
Ammoniy sulfat	<i>ming. tn. azot</i>	3,4	103,1
Natriy gidroksidi (kaustik soda)	<i>ming. tn.</i>	81,3	96,9
Kalsiy xlorid	<i>ming. tn.</i>	3,8	47,3
Ammoniy nitrat (ammoniyli selitra)	<i>ming. tn. azota</i>	272,0	166,5
Superfosfatlar	<i>ming. tn. P2O5</i>	2,2	75,8
Biogaz kurilmalarida ishlab chiqarilgan suyuq bioo'g'itlar	<i>tn.</i>	509,3	46,0
Portlandsement	<i>tn.</i>	3 666 000,0	101,4
Sement klinkerlari	<i>tn.</i>	3 022 700,0	103,8
Sement, beton yoki sun'iy toshdan yig'ma konstruksiyalar elementlari va binolar va inshootlar uchun boshqa buyumlar	<i>tn.</i>	89 718,3	3,8 m.
Sement, beton yoki sun'iy toshdan qurilish uchun g'isht va bloklar	<i>tn.</i>	53 262,1	5,5 m.
Plastmassadan qattiq quvurlar, trubkalar va shlanglar	<i>tn.</i>	5 150,5	102,0
Yogurt	<i>tn.</i>	11,3	4,2 m.
Yumshoq bug'doy va spelta uni	<i>ming. tn.</i>	63 130,0	94,5
Birinchi navli undan tayyorlangan bug'doy noni, og'irligi 600 g (buxanka)	<i>tn.</i>	482,0	108,7
Ishlov berilgan suyuq sut	<i>tn.</i>	676,2	71,8
Tvorog va tvorogdan mahsulotlar	<i>tn.</i>	55,0	64,0
Shirinlik qo'shilmagan tabiiy mineral gazsiz suvlar	<i>ming. litr</i>	138,3	72,7



Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining asosiy ko'rsatkichlari

Tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish, tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturini amalga oshirish doirasida tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan 2021-yil yanvar-dekabr oylarida 2 290,8 mlrd. so'mlik mahalliyashtirilgan mahsulot ishlab chiqarildi.

	<i>2020-yil yanvar-dekabr</i>	<i>2021-yil yanvar-dekabr</i>
Loyihalar soni, birlik	150	200
Korxonalar soni, birlik	31	62
Ishlab chiqarish hajmi, mln. so'm	1 296 546,5	2 290 783,8
Eksport qilingan mahalliyashtirilgan mahsulot hajmi, ming. AQSH doll.	12 685,6	21 089,8
Yaratilgan yangi ish o'rinlari, birlik	297	741



MADE IN UZBEKISTAN






2021-yil yanvar-dekabr oylari yakunlari bo'yicha hududlar kesimida sanoat mahsulotlari hamda xalq iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

	<i>Sanoat mahsuloti</i>		<i>Iste'mol mahsulotlari</i>		<i>Jami sanoatdagi kichik biznes ulushi, % da</i>
	<i>mlrd. so'm</i>	<i>fizik hajm indeksi (o'sish sur'ati, % da)</i>	<i>mlrd. so'm</i>	<i>o'sish sur'ati, % da</i>	
Jami	73 631,1	107,0	4 338,8	105,9	6,9
Navoiy sh.	62 408,1	105,2	1 199,9	100,9	2,0
Zarafshon sh.	383,7	110,3	313,8	119,2	99,1
Karmana t.	7 384,9	100,5	846,0	109,0	16,7
Konimex t.	119,0	78,9	106,5	105,3	100,0
Qiziltepa t.	693,9	108,2	521,7	103,7	82,5
Navbahor t.	743,1	117,3	353,2	110,9	49,4
Nurota t.	348,5	107,9	281,6	108,1	94,6
Tomdi t.	46,8	110,3	39,9	104,9	100,0
Uchquduq t.	182,7	109,8	111,4	106,7	100,0
Xatirchi t.	1 320,4	110,8	564,8	104,2	45,0

Navbahor tumanida (2020-yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan 117,3 foiz), Xatirchi tumani (110,8 foiz) hamda Zarafshon shahri (110,3 foiz), Uchquduq tumaniga (109,8 foiz) sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksi (o'sish sur'ati) viloyat ko'rsatkichdan (107,0 foiz) sezilarli darajada oshganligi bilan izohlashimiz mumkin.


Iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish Zarafshon shahrida (2020-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 119,2 foiz), Navbahor tumanida (110,9 foiz) hamda Karmana tumanida (109,0 foiz) sezilarli darajada oshdi.






2021-yil yanvar-dekabr oylari yakunlari bo'yicha hududlar kesimida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari hamda xalq iste'mol mollari ishlab chiqarish


	Sanoat mahsulotlari, ming so'm		Xalq iste'mol mollari, ming so'm	
	2020	2021	2020	2021
Jami	64 737,5	71 923,0	3 875,7	4 238,2
Navoiy sh.	377 957,7	419 380,8	8 239,8	8 063,0
Zarafshon sh.	3 741,8	4 495,9	2 901,5	3 676,5
Karmana t.	54 777,0	56 716,9	5 528,8	6 497,4
Konimex t.	3 844,1	3 263,4	2 433,3	2 919,4
Qiziltepa t.	7 400,8	4 470,0	3 102,0	3 360,8
Navbahor t.	4 398,9	6 421,0	2 365,8	3 051,7
Nurota t.	2 840,8	3 676,5	2 390,0	2 970,9
Tomdi t.	2 501,8	3 060,5	2 295,2	2 608,5
Uchquduq t.	4 697,9	4 806,9	2 960,9	2 932,2
Xatirchi t.	2 862,7	6 477,4	2 756,3	2 770,9



2021-yil yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish, ming so‘m



2021-yil yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga iste‘mol tovarlari ishlab chiqarish, ming so‘m




2021-yil yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga isteʼmol tovarlari ishlab chiqarish hajmi Navoiy shahriga (8 063,0 ming soʻm), Karmana tumaniga (6 497,4 ming soʻm), Zarafshon shahriga (3 676,5 ming soʻm), Qiziltepa tumaniga (3 360,8 ming soʻm), Navbahor tumaniga (3 051,7 ming soʻm) va Nurota tumaniga (2 970,9 ming soʻm) toʻgʻri keladi.

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 4 451,1 mlrd. soʻmlik mahsulot ishlab chiqarildi.


Oʻtgan yilda qoʻshma korxonalarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 5,8 foizni tashkil etgan boʻlsa, hisobot davrida bu koʻrsatkich 6,0 foizni tashkil etdi.

	Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish		shu jumladan, chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarda	
	mlrd. soʻm	Fizik hajm indeksi (oʻsish surʼati), % da	mlrd. soʻm	Ulushi, % da
Jami	73 631,1	107,0	4 451,1	6,0
Navoiy sh.	62 408,1	105,2	368,1	0,6
Zarafshon sh.	383,7	110,3	70,8	18,5
Karmana	7 384,9	100,5	3 261,7	44,2
Konimex	119,0	78,9	0,4	0,4
Qiziltepa	693,9	108,2	2,9	0,4
Navbahor	743,1	117,3	2,3	0,3
Nurota	348,5	107,9	6,2	1,8
Tomdi	46,8	110,3	-	0
Uchquduq	182,7	109,8	11,9	6,5
Xatirchi	1 320,4	110,8	726,8	55,0

Sanoat mahsulotlari hajmida chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning ulushi, % da




Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining sanoatning umumiy hajmidagi ulushi, % da



Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesni hissasi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan 5 051,5 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi. Hisobot davrida kichik korxonalarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 6,9 foizni tashkil etdi.

Kichik biznes ishlab chiqargan sanoat mahsulotlar hajmi, mlrd. so'm



2021-yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, % da



Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulush Uchquduq tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi (100 foiz), Tomdi (100,0 foiz), Konimex (100,0 foiz), Zarafshon shahri (99,1 foiz), Nurota (94,6 foiz), Qiziltepa (82,5 foiz), Navbahor (49,4 foiz), Xatirchi (45,0 foiz) tumanlarida kuzatildi.

Shu bilan birga, eng kichik ulush Navoiy shahrida (2,0 foiz), Karmana tumanida (16,7 foiz) kuzatildi.

Statistik ko'rsatkichlarga tushuntirish

Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi - korxonada tomonidan ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlar, yarim tayyor, chetga sotishga mo'ljallangan, o'zining nosanoat bo'linmalariga va kapital qurilishga mo'ljallangan mahsulotlar hajmini o'z ichiga oladi; ishlab chiqarilishi hisobot davrida tugallanmagan uzoq muddatli mahsulotlarni ishlab chiqarish bo'yicha ishlar; sanoat tusidagi ishlar (xizmatlar);

Sanoat ishlab chiqarishida o'zgarish indekslari - solishtirma davrlarda mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) fizik hajmining o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir;

Iste'mol mollari - asosan shaxsiy iste'mol yoki foyda olish bilan bog'liq bo'lmagan boshqa maqsadlarda foydalanadigan sanoat mahsulotlari; iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmi amaldagi narxlarda (QQS va aksizlar bundan mustasno) hisoblab chiqiladi;

Natura ko'rinishida sanoat ishlab chiqarish hajmi - boshqa korxonalariga jo'natish uchun yoki ishlab chiqarishga mo'ljallangan mahsulotlarni, shu jumladan korxonaning sanoat ehtiyojlari uchun sarflangan mahsulotlarni o'z ichiga oladi, ya'ni yalpi mahsulot;

Mahalliyashtirish darajasi - ishlab chiqarishda ishlatiladigan mahalliy materiallar, mehnat va intellektual resurslarning ulushini belgilaydi; mahalliyashtirish darajasini hisoblashda xarajatlar, soliq to'lovlari va ishlab chiqarish jarayoniga bevosita aloqador bo'lmagan boshqa imtiyozlar hisobga olinmaydi;

Mahsulot sotish hajmi - savdo narxlarida keltiriladi (QQS va aksiyalar bundan mustasno).